



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

*VOL. 3 ISS: 2 (2026)*

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	<b>QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI</b> <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	<b>SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI</b> <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	<b>ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH</b> <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzaevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	<b>SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI</b> <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzaevich, Raxmonberganov Surojbek Uktambov o'g'li</i>	18
5.	<b>MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH</b> <i>Raxmonberganov Surojbek Uktambov o'g'li</i>	21
6.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI</b> <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	<b>PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI</b> <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	<b>BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI</b> <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI</b> <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	<b>QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH</b> <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	<b>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА</b> <i>Муминова Ансора Улугбек кизи</i>	42
12.	<b>СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ</b> <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улугбек кизи</i>	45
13.	<b>O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI</b> <i>Madiyev Abbos Nosirovich</i>	50
14.	<b>QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI</b> <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	<b>O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI</b> <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	<b>KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI</b> <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	<b>TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI</b> <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	<b>O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI</b> <i>Kuldashv Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	<b>BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GARVIDIR</b> <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	<b>MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI</b> <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	<b>A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK</b> <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	<b>IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI</b> <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	<b>XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI</b> <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	<b>НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА</b> <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	<b>O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI</b> <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	<b>O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI</b> <i>Berdibayev Fayzulla Zaripbayevich</i>	95
27.	<b>ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI</b> <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	<b>SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI</b> <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	<b>RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI</b> <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	<b>TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI</b> <i>Xamdamon Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	<b>SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLTLARI</b> <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	<b>METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLTLARI</b> <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	<b>AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET</b> <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	<b>UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI</b> <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	<b>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ</b> <i>Ахроров Зариф Орипович</i>	123
36.	<b>RAQAMLI SOLIQTIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI</b> <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	<b>SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA</b> <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	<b>TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQQISH BOSQICHLARI</b> <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	<b>RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH</b> <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136
40.	<b>MAMLAKATIMIZDA NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA USLUBIY YONDASHUVLAR</b> <i>Baxtiyor Artikov</i>	139
41.	<b>O'ZBEKISTONDA O'RTA VA KATTA BIZNESLARDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH VA ULARNI OLDINI OLIH MEXANIZMLARI</b> <i>Boyniyozov Ro'zimbek G'ulomjon o'g'li, Abduqahhorova Maxliyo Albert qizi, Muradullayev Sarvar Muradulla o'g'li</i>	146

42.	<b>NARXLAR STATISTIKASI KUZATUVLARINI DATA SCIENCE TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Odiljonov Ikromjon Komiljon o'g'li</i>	<b>150</b>
43.	<b>BOZOR IQTISODIYOTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH: NAZARIY EVOLYUTSIYA, MEXANIZMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR</b> <i>Karimova Latofat Sadullayevna</i>	<b>153</b>
44.	<b>TIJORAT BANKLARINING UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KAPITAL YETARLILIGINI BOSHQARISH STRATEGIYASI</b> <i>Mamadjonov Shukurillo Ibrohimjon o'g'li</i>	<b>157</b>
45.	<b>OLIIY TA'LIMNING HUDUDIY IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI: PANEL FIXED EFFECTS EKONOMETRIK MODEL ASOSIDA EMPIRIK TAHLIL (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)</b> <i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	<b>161</b>
46.	<b>RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA BYUDJET SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI</b> <i>Salomov Abdulalom Ismatovich</i>	<b>166</b>
47.	<b>УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ОГРАНИЧЕНИЙ</b> <i>Тухтаев Максуд Мансурович</i>	<b>169</b>
48.	<b>KO'P O'LCHOVLI KAMBAG'ALLIK INDEKSINI HISOBLASH BO'YICHA ALKIRE-FOSTER USULI VA TAVSIYALARI</b> <i>Urazbayev Raxmatjon Otajanovich</i>	<b>172</b>

## “O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



## O'ZBEKISTONDA O'RTA VA KATTA BIZNESLARDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH VA ULARNI OLDINI OLISH MEKANIZMLARI

**Boyniyozov Ro'zimbek G'ulomjon o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali talabasi  
[rozimbekboyniyozov9@mail.ru](mailto:rozimbekboyniyozov9@mail.ru)

**Abduqahhorova Maxliyo Albert qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali talabasi  
[abduqahhorovamaxliyo@gmail.com](mailto:abduqahhorovamaxliyo@gmail.com)

**Muradullayev Sarvar Muradulla o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali talabasi  
[sarvarmuradullayev@gmail.com](mailto:sarvarmuradullayev@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'рта va yirik biznes subyektlari faoliyatida yashirin iqtisodiyotni aniqlashning zamonaviy usullari, xususan risk-analiz asosida tahlil qilish imkoniyatlari o'rganiladi. Shuningdek, tadbirkorlarni faqat jazolash choralarini qo'llash orqali emas, balki iqtisodiy rag'batlantirish, soliq tizimini soddalashtirish hamda biznes muhitini yaxshilash orqali ularni "soyadan" chiqarish mexanizmlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Yashirin iqtisodiyot, o'рта biznes, soliq tizimi, moliyaviy shaffoflik, mexanizmlar, raqamli modellar.

**Abstract:** This article examines modern methods for identifying the hidden economy in the activities of medium and large business entities, in particular, the possibilities of risk-based analysis. It also analyzes mechanisms for bringing entrepreneurs out of the "shadow" not only through the use of punitive measures, but also through economic incentives, simplification of the tax system, and improvement of the business environment.

**Keywords:** Hidden economy, medium-sized businesses, tax system, financial transparency, mechanisms, digital models.

**Абстрактный:** В данной статье рассматриваются современные методы выявления скрытой экономики в деятельности средних и крупных хозяйствующих субъектов, в частности, возможности риск-ориентированного анализа. Также анализируются механизмы вывода предпринимателей из «тени» не только посредством карательных мер, но и за счет экономических стимулов, упрощения налоговой системы и улучшения деловой среды.

**Ключевые слова:** Скрытая экономика, средние предприятия, налоговая система, финансовая прозрачность, механизмы, цифровые модели.

### Kirish (Введение/Introduction).

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash yo'lida yuzaga kelayotgan muhim muammolardan biri - yashirin iqtisodiyot hisoblanadi. Yashirin iqtisodiy faoliyat davlat tomonidan rasmiy hisobga olinmaydigan, soliq tizimidan chetda qoladigan hamda iqtisodiy statistikada to'liq aks etmaydigan faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Turli xalqaro moliya institutlari tahlillariga ko'ra, mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot hajmi yalpi ichki mahsulotning (YaIM) sezilarli qismini tashkil etadi. Bu esa davlat byudjeti daromadlarining kamayishiga, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanilmasligiga hamda iqtisodiy siyosatni amalga oshirish jarayonida muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, o'рта va yirik biznes subyektlari faoliyatida daromadlarni yashirish, ish haqini norasmiy tarzda, ya'ni "konvert" usulida to'lash, shuningdek ayrim hollarda asossiz soliq imtiyozlaridan foydalanish kabi holatlar uchrab turadi. Bunday amaliyotlar nafaqat davlat byudjetiga zarar yetkazadi, balki iqtisodiyotda sog'lom raqobat muhitining buzilishiga, shaffoflik darajasining pasayishiga va investitsion muhitning yomonlashishiga ham olib keladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar ushbu yo'nalishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu hujjatlar orqali soliq nazoratini kuchaytirish, iqtisodiy operatsiyalarni raqamlashtirish hamda tadbirkorlik faoliyatining shaffofligini ta'minlash bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Shuningdek, naqd pulsiz to'lovlarni kengaytirish va iqtisodiy operatsiyalarni bank tizimi orqali amalga oshirishni rag'batlantirish ham

yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bu borada qabul qilingan Prezident farmonlari iqtisodiy operatsiyalarni rasmiylashtirishni kengaytirish hamda moliyaviy nazoratni kuchaytirishga qaratilgan.

### Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

So'nggi yillarda yashirin iqtisodiyot muammosi iqtisodiy xavfsizlik, davlat budjeti daromadlari va sog'lom raqobat muhitini ta'minlash bilan bog'liq dolzarb masalalardan biri sifatida keng tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, o'рта va katta biznes subyektlarida yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlash hamda uni qisqartirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar soni ortib bormoqda [1].

Ilmiy manbalarda yashirin iqtisodiyotning shakllanishiga soliq yukining yuqoriligi, murakkab byurokratik tartiblar, naqd pul aylanmasining yuqoriligi va nazorat mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligi asosiy omillar sifatida qayd etiladi [2]. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, yirik biznes subyektlarida moliyaviy operatsiyalar hajmining kattaligi ayrim hollarda daromadlarni yashirish yoki soliqlardan qochish imkoniyatlarini kengaytiradi [3].

Xalqaro tadqiqotlarda yashirin iqtisodiyotni aniqlashda raqamli texnologiyalar va Data Science vositalarining ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Xususan, sun'iy intellekt, Big Data va avtomatlashtirilgan risk-tahlil tizimlari yordamida shubhali moliyaviy operatsiyalarni aniqlash samaradorligi oshayotgani qayd etilgan [4]. Shu bilan birga, elektron hisob-faktura, onlayn nazorat-kassa mashinalari hamda raqamli to'lov tizimlari iqtisodiy operatsiyalar shaffofligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri sifatida baholanmoqda [5].

Bir qator ilmiy ishlarda O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan soliq va raqamlashtirish islohotlari yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishga xizmat qilayotgani ko'rsatib o'tilgan [6]. Xususan, elektron hisob-fakturalar, onlayn NKM tizimi va keshbek mexanizmlarining joriy etilishi savdo aylanmalarini rasmiylashtirish darajasini oshirganligi ta'kidlanadi [7].

Tadqiqotchilar tomonidan yashirin iqtisodiyotni aniqlashda ekonometrik modellar va statistik tahlil usullaridan foydalanish ham keng o'rganilgan. Ushbu usullar yordamida rasmiy va norasmiy iqtisodiy faoliyat o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash hamda soliq xavfi yuqori bo'lgan korxonalarini segmentatsiya qilish imkoniyati yaratiladi [8].

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish faqat nazorat choralarini kuchaytirish bilan emas, balki tadbirkorlik muhitini yaxshilash, soliq tizimini soddalashtirish va biznes uchun qulay institutsional sharoit yaratish bilan chambarchas bog'liqligi qayd etiladi [9]. Shu sababli zamonaviy iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyotni kamaytirish kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi zarur hisoblanadi.

#### Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda o'rta va katta biznes subyektlarida yashirin iqtisodiyotni aniqlash hamda uni oldini olish mexanizmlarini o'rganish uchun kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy tahlil, statistik tahlil, ekonometrik modellashirish hamda Data Science texnologiyalariga asoslangan yondashuvlar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar yordamida yashirin iqtisodiyotning shakllanish sabablari, uning biznes muhitiga ta'siri hamda uni aniqlash va kamaytirish mexanizmlari tizimli ravishda o'rganildi.

Empirik ma'lumotlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, Davlat statistika qo'mitasi, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda ochiq ma'lumotlar bazalaridan foydalanildi. Shuningdek, yirik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy hisobotlari, elektron hisob-faktura tizimi ma'lumotlari va onlayn nazorat-kassa mashinalari (NKM) ma'lumotlari tahlil qilindi.

Yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlashda ekonometrik modellar qo'llanildi. Xususan, regressiya tahlili, korrelyatsion tahlil va panel ma'lumotlar modeli yordamida rasmiy va norasmiy iqtisodiy faoliyat o'rtasidagi bog'liqliklarni o'rganildi. Ushbu yondashuv yashirin iqtisodiyot ulushiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda shuningdek Data Science usullari ham keng qo'llanildi. Big Data texnologiyalari yordamida katta hajmdagi moliyaviy operatsiyalar ma'lumotlari qayta ishlanib, shubhali tranzaksiyalarni aniqlash uchun mashinaviy o'qitish algoritmlaridan foydalanildi. Supervised learning usullari asosida Random Forest va Gradient Boosting modellaridan foydalanilib, soliq xavfi yuqori bo'lgan korxonalar segmentatsiya qilindi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash va vizualizatsiya qilish uchun Python dasturlash tili, Pandas, NumPy, Scikit-learn va Matplotlib kutubxonalaridan foydalanildi. Bu esa tahlil jarayonini avtomatlashtirish va natijalarning aniqligini oshirish imkonini berdi.

Shuningdek, tizimli tahlil asosida yashirin iqtisodiyotni kamaytirishga qaratilgan institutsional mexanizmlar, jumladan elektron hisob-faktura tizimi, onlayn NKM, keshbek tizimi va raqamli soliq monitoringi samaradorligi o'rganildi.


Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida qiyosiy tahlil va validatsiya usullari qo'llanildi. Olingan natijalar xalqaro tajriba bilan solishtirildi va O'zbekiston sharoitida ularning mosligi baholandi.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi yashirin iqtisodiyotni aniqlash va oldini olishda an'anaviy iqtisodiy tahlil usullari bilan bir qatorda zamonaviy Data Science va ekonometrik yondashuvlarni integratsiya qilishga asoslandi.

#### Tahlil va natijalarlar (Analysis and results/Анализ и результаты).

Yashirin iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy tizimning eng murakkab muammolaridan biri hisoblanadi. Bu hodisa rasmiy statistikada to'liq aks etmaydigan iqtisodiy faoliyatni ifodalaydi hamda ko'pincha soliqlardan qochish, norasmiy bandlek yoki hujjatsiz savdo operatsiyalari orqali yuzaga keladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari natijasida yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish bo'yicha sezilarli chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti 2025-yil yanvarsentabr oylarida 1,3 kvadrilyon so'mdan (108,73 milliard dollar) oshdi, bu esa real ko'rinishda 7,6 foizga o'sishni anglatadi. Bu mamlakat COVID-19 pandemiyasidan tiklanayotgan 2021-yildan beri eng tez o'sish sur'ati hisoblanadi.

Kuzatilmagan iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati 433,67 trillion so'mni (36,17 milliard dollar) tashkil etdi, uning YaIMdagi ulushi yilning birinchi yarmidagi 32,9% dan 33,3% gacha o'sdi. 2024-yilda O'zbekistonning kuzatilmagan iqtisodiyoti 505 trillion so'mdan (40 milliard dollar) oshdi, bu YaIMning 34,8 foizini tashkil etadi. 2023-yil sentabr oyida mutaxassislar soya iqtisodiyotining hajmini taxminan 32 milliard dollarga baholadilar – bu YaIMning taxminan 40 foizini tashkil etadi. Uning asosiy tarkibiy qismlari ikkilamchi uy-joy va avtomobil bozorlari, qishloq xo'jaligi, norasmiy savdo va xizmatlar sohalardan iborat.



1-rasm Tarmoqlar kesimida kuzatilmagan iqtisodiy ulushi<sup>1</sup>

O'rta biznesda yashirin iqtisodiyotning eng asosiy sabablari. O'zbekiston iqtisodiyotida o'rta biznes subyektlari yashirin iqtisodiyotning eng sezilarli manbalaridan biridir. Bu hodisaning asosiy sabablari bir necha jihatdan tushuntiriladi: soliqlar yukining nomutanosibligi, ish haqini rasmiylashtirishdagi qo'shimcha xarajatlar va byurokratik to'siqlar.

Foyda solig'i va QQS tizimi: O'rta biznes korxonalarini uchun YaIMga nisbatan aylanma oshishi bilan foyda solig'i (15%) va QQS (12%) to'lovchisi sifatida majburiyatlar keskin ortadi. Masalan:

- Agar o'rta korxonada yillik aylanmasi 1 mlrd so'mga yetgan bo'lsa, u avtomatik ravishda QQS to'lovchisi bo'ladi va foyda solig'i majburiyatlari yuzaga keladi.

- Shu paytgacha 1 mlrd so'mlik aylanmani rasmiy ko'rsatmagan korxonada "soya"da qolgan hisoblanadi, bu esa ularning soliq yuki kamayadi va naqd operatsiyalarni nazoratdan yashirish imkonini beradi. Natijada, korxonada aylanmani bo'lib ko'rsatish yoki bir nechta kichik korxonada tashkil qilish orqali soliq majburiyatini kamaytirishga harakat qiladi. Bu esa statistik ma'lumotlarda o'rta biznes samaradorligini pasaytiradi.

Ish haqini rasmiylashtirmaslik. O'zbekiston sharoitida ishchi ish haqi rasmiy ko'rsatilsa, tadbirkor:

- Daromad solig'i: 12%
- Ijtimoiy to'lovlar: 15–20%

Shu kabi qo'shimcha xarajatlarga duch keladi. Natijada:

<sup>1</sup> Muallif ishlamasi

• Tadbirkorlar ishchilarni haqini “konvert” usulida to'lashga majbur bo'ladi.

• Bu ishchilar pensiya va ijtimoiy jamg'armalarga tushum keltirmaydi.

• Norasmiy bandlik o'sib, iqtisodiyotda soya sektori kengayadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda rasmiy band bo'lmaganlar soni 5 milliarddan ortiq bo'lib, ularning aksariyati real ish haqi to'laydi, lekin bu daromadlar “soya”da qoladi.

Aylanmani yashirish va norasmiy hisob-kitoblar: Korxonalar aylanmani yashirishga quyidagi sabablar bilan harakat qiladi:

• Naqd pul aylanmasi: Ko'plab yetkazib beruvchilar rasmiy hujjat bermaydi, xomashyo naqd pulga sotiladi.

• Byurokratik to'siqlar: Hisobotlar murakkab va tekshiruvlar ko'p.

• Notalabor raqobat: Yashirin faoliyatda bo'lgan korxonalar mahsulotini arzonroq sotadi, halol tadbirkor esa raqobatga dosh berish uchun o'z faoliyatini yashirishga majbur bo'ladi. Natijada, to'liq iqtisodiy zanjir “soya”ga tortiladi, bu ham davlat byudjetiga tushumlarning kamayishiga olib keladi.

### 1-jadval

#### O'rta va katta bizneslarda yashirin iqtisodiyot omillari hamda ularning iqtisodiy oqibatlari<sup>2</sup>

Sabablar	Tahliliy izoh	Iqtisodiy oqibat
Foyda solig'i va QQS	O'rta biznesda aylanma oshishi bilan soliq majburiyati keskin oshadi	Korxonalar aylanmani bo'lib ko'rsatadi yoki kichik firmalarga bo'lib tashlaydi
Ish haqini rasmiylashtirmaslik	Ish haqi + ijtimoiy soliq xarajatlari ortadi	“Konvert” usuli, norasmiy bandlik o'sadi, pensiya va ijtimoiy jamg'armaga tushum kamayadi
Naqd pul aylanmasi	Yetkazib beruvchilar hujjatsiz, naqd pul operatsiyasi keng tarqalgan	Xarajatlarni yashirish va rasmiy nazoratdan qochish
Notalabor raqobat	Yashirin faoliyatdagi korxonalar mahsulotini arzonroq sotadi	Halol tadbirkor ham “soya”ga o'tishga majbur bo'ladi

Raqamlashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni bartaraf etish modellari: So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashning eng samarali mexanizmlaridan biriga aylandi. Elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari va avtomatlashtirilgan risk-tahlil tizimlari orqali iqtisodiy operatsiyalar ustidan monitoring kuchaytirildi.

### 2-jadval

#### Raqamli iqtisodiy nazorat vositalari va ularning yashirin iqtisodiyotni kamaytirishdagi ahamiyati<sup>3</sup>

Modellar / Vosita	Qanday ishlaydi	Foydasi
E-faktura	Tovar harakatini ishlab chiqaruvchidan to yakuniy iste'molchigacha onlayn kuzatadi	Foydani yashirish imkonini kamaytiradi; rasmiy tushumlarni oshiradi
Onlayn NKM (Kassa Mashinalari)	Har bir chek onlayn tarzda soliq organlariga uzatiladi	Savdo aylanmasini to'liq ko'rsatadi; keshbek tizimi

#### Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

2. Medina L., Schneider F. Shadow Economies Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years? — International Monetary Fund, Washington DC, 2023.

		bilan birgalikda aholini chek olishga rag'batlantiradi
Risk-tahlil avtomatlashtirilgan tizimi	Korxonalarni tekshirishni tanlaydi, shubhali operatsiyalarni aniqlaydi	Tekshiruv samaradorligini oshiradi, resurslarni tejaydi
Keshbek tizimi (ijtimoiy nazorat)	Xaridorlar chek olinganda 1% keshbek oladi	Korxonalar savdo aylanmasini to'liq ko'rsatishga majbur bo'ladi

Xulosa: ushbu raqamli vositalar birgalikda ishlaganda, nafaqat nazorat samaradorligi oshadi, balki tadbirkorlarni rasmiy sektorga jalb etish orqali yashirin iqtisodiyot qisqaradi.

#### Xulosa va takliflar (Conclusion/Выводы и предложения).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'rta va yirik biznesda yashirin iqtisodiyotni faqat ma'muriy bosim orqali jilovlash yetarli emas. Tadbirkorlarni “soyadan” chiqarishning samarali yo'li — ularning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish orqali rag'batlantirishdir. Shu maqsadda quyidagi mexanizmlar tavsiya etiladi:

Tezlashtirilgan amortizatsiya mexanizmi: AQSh va Germaniya tajribasidan foydalangan holda, soliqqa to'liq rioya qiluvchi va o'z aylanmasini shaffof deklaratsiya qiluvchi korxonalar uchun asosiy vositalar qiymatini tezroq xarajatga chiqarish imkoniyati taqdim etilishi kerak. Bu korxonalar qonuniy ravishda soliqqa tortiladigan foydani kamaytirish va texnologiyalarni modernizatsiya qilish orqali daromadlarni ochiq ko'rsatish rag'batini beradi.

Soliq krediti (Investment Tax Credit) tizimi: Yashirin iqtisodiyotning asosiy o'choqlaridan biri bo'lgan norasmiy bandlikni kamaytirish uchun, ishchilarni 100% rasmiylashtirgan korxonalar ijtimoiy soliqning ma'lum bir qismini (masalan, 15-20%) yangi ish o'rinlari yaratish yoki xodimlarni qayta tayyorlash uchun qoldirish mexanizmi joriy etilishi lozim. Bu byudjet uchun yo'qotish emas, balki ilgari “soyada” bo'lgan mablag'larning rasmiy aylanmaga kirishidir.

Soliq intizomi reytingi asosida kredit foizlarini subsidiyalash: Soliq to'lovchi tadbirkorlar arzon moliyaviy resurslarga erishish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Yuqori reytingga ega bo'lgan shaffof bizneslar uchun tijorat banklarining kredit foizlarini davlat jamg'armalari hisobidan qisman qoplash tizimini kengaytirish - tadbirkorni “soyada” yashashdan ko'ra, ochiq ishlab, arzon kredit olishga undaydi.

Progressiv soliq stavkasi orqali ijtimoiy adolatni ta'minlash: Jismoniy shaxslarning daromad solig'ini tabaqalashtirish orqali, kam daromadli qatlamning soliq yukini kamaytirish va yuqori daromadli qatlam uchun stavkani biroz oshirish (masalan, 15% gacha) tavsiya etiladi. Bu jamiyatda ijtimoiy tenglikni kuchaytiradi va byudjet tushumlarini barqaror ta'minlaydi.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda jazo choralaridan iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlariga o'tish - davlat va biznes o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Taklif etilgan mexanizmlar biznesni “shaffof” ishlashga iqtisodiy jihatdan jozibador qiladi, shu bilan birga byudjet tushumlarini kamaytirmasdan, norasmiy iqtisodiy faoliyatni legallashtirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv nafaqat tadbirkorlarni rag'batlantiradi, balki ijtimoiy adolat va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam beradi.

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>3</sup> Muallif ishlanmasi

3. OECD. Tax Administration Digitalisation and Shadow Economy Reduction. — Paris: OECD Publishing, 2024.
4. World Bank. Business Informality and Tax Compliance in Developing Countries. — Washington DC, 2023.
5. Marr B. Artificial Intelligence in Practice. 2nd edition. — Wiley, 2024.
6. International Monetary Fund. Digital Payments and Tax Transparency. — Washington DC, 2024.
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha tahliliy hisobot. — Toshkent, 2024.
8. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. Elektron soliq tizimlari va raqamli nazorat mexanizmlari. — Toshkent, 2024.
9. James G., Witten D., Hastie T., Tibshirani R. An Introduction to Statistical Learning. 2nd edition. — Springer, 2023.
10. United Nations Development Programme (UNDP). Digital Governance and Economic Transparency. — New York, 2024.